

ISLOM DININING TARQALISHI VA ISLOM DINI G'OYALARINING TA'LIM-TARBIYADAGI AHAMIYATI

Davronova Feruza Rahmonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchi,
s.f.f.d. (PhD)

Ubaydullayeva Manzura Temurmaliq qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 1-bosqich talabasi

"Islom dini-bu ota-bobolarmiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, oriyatli, nomusli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar".

I.A.Karimov

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo dini hisoblangan Islom dinining dunyoga tarqalishi va ta'lim-tarbiyadagi ahamiyatlari, hamda muqaddas kitobi sanalmish Qur'oni Karimning tarbiya va ta'limga bo'lgan ta'siri qay darajada ekanligini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Din, arab tili, islom, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.), shariat, ta'lim va tarbiyaga oid hadislar, axloq va odob.

Аннотация: В этой статье будет объяснено распространение ислама, который считается мировой религией, и его значение в образовании, а также влияние священной книги, Священного Корана, на образование и обучение.

Ключевые слова: религия, арабский язык, ислам, наш Пророк Мухаммад (мир ему и благословение), шариат, хадисы по воспитанию и обучению, нравы и нравы.

Annotation. In this article, the spread of Islam, which is considered a world religion, and its importance in education, as well as the influence of the holy book, the Holy Qur'an, on education and training will be explained in this article.

Key words: Religion, Arabic language, Islam, our Prophet Muhammad (pbuh), sharia, hadiths on education and training, morals and manners.

Din - dunyo, inson, barcha mavjudodlarning kelib chiqishi, xudo yoki xudolar, g'ayritabiyy kuchlar mavjudligiga ishonishi hisoblanadi. Din muayyan ta'limotlar, his tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon

bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishing alohida ta'siri, uni idrok etishning o'ziga hos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonundir. Alloh taolo Qur'on tili etib tanlab olgan eng buyuk til. Haqiqatdan, u har bir musulmonning qalbiga yaqindir. Arab tili eng murakkab til bo'libgina qolmasdan, u juda boy til. Qur'oni karimning nozil bo'lishi natijasida mumtoz arab tili badiiyati yanada mukamallashgan. Islom dini VII asrda Arabiston yarim orolida (hozirgi Saudiya Arabistoni) paydo bo'ldi. [3] Bu orol arab tilida "Jazirat al-arab", ya'ni arablarning yarim oroli degan ma'noni anglatadi. Islom dinining paydo bo'lishi xususidan Islom man'balariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi. Ialom talqinida dastlab, yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan Xudoga ishonganlar. Shu Xudo ya'ni Alloh odamlarga payg'ambarlar va elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammadni (s.a.v.) tanladi, unga o'zining kalomi Qur'onni nozil qildi. Muhammad (s.a.v.) oldin o'z hamshaharlarini so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish yagona xudo Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushush uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etadi.

Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olamshumul ta'limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinch-omon yashashlarini uqtirib keladi. Ayni paytda islom dinida razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi.

Tarbiya umr bo'yi davom etgan jarayon. Hayotdagi har bir kishi tarbiyaviy ta'sirga ega. U hayot maktabida tarbiyalanar ekan, tarbiyachi sifatida, tarbiya vositasi vositasida o'zi ham ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan shuningdek ma'lum bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, tajriba va kompetentsiya yig'indisi bo'lgan intellektual, ma'naviy-marifiy ta'limning yagona yo'naltirilgan jarayoni- shaxsning axloqiy va ijodiy, jismoniy va kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish. [5] Shariatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya'ni onasini yoki otasini tanlashdan avval deb javob beriladi.

Ulamolarimiz ta'kidlab aytishadiki, farzand hali dunyoga kelmay turib, uning kimlar orqali dunyoga kelishi mumkinligiga e'tibor berishni aytishadi. Bo'lg'usi ona

yoki ota tug'ilajak farzand tarbiyasining zohiriy asoschilaridir. Chunki farzand tug'ilganda uning tabiati sof holda tug'iladi va qaysi muhitda tarbiya ko'rib, o'sib ulg'aysa, o'sha muhitdan ta'sirlanadi. [1] Rasululloh sollallohi alayhi vassallam: "Har bir tug'ilgan go'dak Islom fitratida (ya'ni sof tabiatda) tug'iladi. Ota onasi uni yo yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi", - deb marhamat qilganlar. [6] Agar ota-ona diyonatli bo'lsa, farzandning tarbiyasida onalarning ta'siri katta bo'ladi. Bo'lajak ona ham o'z farzandining bo'lajak otasini tanlashi lozim. Bunda ham bo'lg'usi otaning din-u diyonati, axloq va odobiga qaraladi. Qur'oni Karimdagi oyatlardan biri madinalik sahobalar Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga kelib, uylari uzoqlik qilayotgani bois, uylarini sotib, yaqinroq joyga ko'chib kelishlari haqida shikoyat qilganlarida nozil bo'lgan. Ya'ni uylarni sotishga hojat yo'q. uzoqdan kelayotgan bo'lsalar, har bir bosilgan qadamlariga savob beriladi, mazmunida. "Biz ular keltirgan qadamlarni, bosgan qadamlarni ham yozamiz va ularning asarini ham yozamiz", - deya marhamat qilingan. Tafsirlarning birida bu oyatdagi "ularning izi" degani bu asarimiz, avlodlarimizdir, degan fikr bildirilgan. Allohning bu oyatidan tushunamizki, Alloh nafaqat amalimizni, balki avlodlarimiz amalini ham o'zimizga yozadi. Shuning uchun tarbiya vojib bo'ladi. Orqamizdan yaxshi tarbiyali farzand qoldiraylikki, ortimizdan faqat savob borsin, yomonlik bormasin, zotan, Islomda tarbiya vojibdir. Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning "Rob" ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya - faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqtovlar bo'lsin, degan. Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. "Robbil a'lamiyn" butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya'ni nazorati, kuzatuvini lahza to'xtatsa, odamlar izdan chiqib ketadi.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. [2] Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq shaxs tarqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Qur'on kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Islom dini qanchalar go'zal din ekanligini har bir musulmon ich-ichida his qiladi. Islom dini va uning muqaddas kitobi Quroni Karim insonni hech qachon yomonlik tomon boshlamaydi, aksincha, yaxshilik sari

yetaklaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilgan ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bolamiz.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"
2. Anvar Ahmad Nozim Mamatov "Arab tili". 1-kitob. T.: 2013.
3. Sulaymon Amirkulovich Haydarov. Tarix darslarida integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish, 2020.
4. Nomozov, M. M. O., Haydarov, S. A. (2021). O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000 - 2005).
6. Qur'oni karim tafsiri.